

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MUHAMMADIYEV AXADJON MAXMUDOVICH

**QO‘QON ADABIY MUHITI TAKOMILIDA IJODIY AN‘ANA
VA POETIK TAFAKKUR YANGILANISHI
(Muhyi va uning zamondoshlari asarlari misolida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc) on
philological sciences**

Muhammadiyev Axadjon Maxmudovich

Qo‘qon adabiy muhiti takomilida ijodiy an‘ana va poetik tafakkur yangilanishi
(Muhyi va uning zamondoshlari asarlari misolida) 3

Мухаммадиев Ахаджон Махмудович

Творческие традиции и обновление поэтического мышления
в совершенствовании литературной среды Коканда
(на примере произведений Мухьи и его современников)..... 35

Muhammadiev Akhadjon Makhmudovich

Renewal of creative tradition and poetic thinking in the development of the
Kokan literary environment (as an example of the works of Muhyi and his
contemporaries) 69

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 74

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MUHAMMADIYEV AXADJON MAXMUDOVICH

**QO‘QON ADABIY MUHITI TAKOMILIDA IJODIY AN‘ANA
VA POETIK TAFAKKUR YANGILANISHI
(Muhyi va uning zamondoshlari asarlari misolida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Fil480 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Shahrisabz davlat pedagogika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fati.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Muhiddinov Muslixiddin Qutbiddinovich filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xo‘jaqulov Sirojiddin Xolmaxmatovich filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent Jabborov Nurboy Abdulhakimovich filologiya fanlari doktori, professor Vohid Turk filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 13-yanvar soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.A. Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

D.B. Xursanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.M. Muhiddinova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiy tafakkuri taraqqiyotida poetik tafakkur yangilanishining adabiy-estetik asoslari hamda poetik an'ana sintezi kabi masalalar dolzarb muammolardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Bunda ma'lum bir ijodkor poetik tafakkurining yangilanishi, o'z navbatida, an'analarga bo'lgan yondashuvning, badiiy obrazlar tadrijining, janrlar takomili va poetik shakllarning yangilanishiga asos bo'ladi. Dunyo she'rshunoslik tarixida adiblarning ijodiy laboratoriyalariga e'tibor qaratish, ulardagi o'ziga xoslikning an'anaviylikka munosabati masalalarini talqin etishga asos bo'lib kelgan. Asarlarni mazkur yo'nalishda tahlil etish adabiyotshunoslik ilmining mavzu, badiiy obraz, janr, vazn kabi nazariy masalalarini yanada aniqlashtirishga, takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli ham jahon adabiyotshunosligida olib borilayotgan ishlar salmog'idan kelib chiqib, bu yo'nalishda o'zbek mumtoz adabiyoti vakillari faoliyatini o'rganish va qayta baholash davr talabi bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodini yangi mezonlar asosida ochib berish bugungi adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida klassik janrlar evolyutsiyasi hamda taraqqiyotini o'rganishga qiziqish har doim kuchli bo'lgan. Shu ma'noda keyingi yillarda mumtoz adabiyotimizni chuqur ilmiy-nazariy asosda o'rganish, matn va manbalarni badiiylik mezonlari asosida yangicha nuqtayi nazar bilan tadqiq etish alohida mavqe kasb eta boshladi. Jumladan, Muhyi va uning zamondoshlari asarlari ham keng qamrovli, teran mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan falsafiy-irfoniy ma'nolardan xoli emasligini alohida ta'kidlamochimiz. Milliy adabiyotning mavjudligi, adabiy mezon va me'yorlarning shakllangani xalqning madaniyati, tamaddun rivojiga aloqador unsur ekanidan darak beradi. Biroq musulmon Sharqidagi milliy adabiyotlar she'riyatining taraqqiyot bosqichlari, xususan, o'zbek adabiyotiga doir barcha manbalar yetarlicha o'rganilgan deb ayta olmaymiz. Adabiyotshunoslik intensiv rivojlantirishni taqozo etadi. Mumtoz adabiy merosga munosabatni o'zgartirish, yangi yondashuvlarni joriy etish zarur. Ayniqsa, milliy o'zlikni anglash jarayonida mintaqamizda rivojlangan tamaddun o'choqlarida, xususan, Qo'qon adabiy muhitida yashab ijod qilgan va shu paytgacha kam o'rganilgan ma'naviy merosning o'ziga xos jihatlarini aniqlash zaruratga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda mumtoz adiblarimizning boy madaniy merosini o'rganish, yangi aniqlangan qo'lyozmalarni nashrdan chiqarish, ularning poetik mahoratini ilmiy tadqiq qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida "ikkinchi oltin davr" nomini olgan Qo'qon adabiy muhitida yashab ijod qilgan shoirlar asarlarini o'rganish, ulardagi an'anaviylik va ijodiy o'ziga xoslik masalalarini keng ilmiy aspektida tadqiq etish va baholash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. "Xalqimizning boy madaniy merosini tiklash va o'rganish maqsadida bir qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, poytaxtimizda O'zbekistondagi Islom madaniyati

markazi, Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi barpo etilmoqda. O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi, O‘zbekistonning yangi tarixi markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda”¹. Shu bois biz Muhyiddin Muhyi yashagan davr va adabiy muhitni tanlab oldik va zaruriy hollarda o‘rni bilan shoir zamondoshlarining asarlariga murojaat qildik. Qo‘qon adabiy muhiti takomilida ijodiy an‘ana va poetik tafakkur yangilanishi mavzusini Muhyi va uning zamondoshlari asarlari misolida o‘rganish tadqiqotning yangiligini va mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 10-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-iyundagi PQ-3074-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Jahon adabiyotshunosligining Sharq mumtoz adabiyoti, adabiy muhitlar, mumtoz

¹ Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдевори // Халқ сўзи. –Тошкент, 2017 йил 4 август.

²Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://arts.unimelb.edu.au/nceis;>
<https://www.westernsydney.edu.au;> <https://slc.umd.edu/persian/about;> <http://nelc.uchicago.edu;>

obrazlar olami, she'riyatda qofiya, radif, badiiy san'atlarning o'rni kabi muhim muammolarni o'rganish borasidagi tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida, xususan, Ankara Universiteti, Istanbul Universiteti (Turkiya); Oxford, Kembrij universitetlari (Buyuk Britaniya); Balx davlat universiteti (Afg'oniston); Aligarh Muslim University, Delhi University (Hindiston); Azərbaycan milli elmler akademiyasi Nizami adina adabiyat institute (Ozarbayjon); Институт восточных рукописей в Санкт-Петербурге (Rossiya); Институт Востоковедение АН Украины им. А. Крымского (Ukraina); Институту забон, адабиёт, шарқшиносӣ ва мероси хаттии ба номи Рӯдакӣ (Tojikiston); O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti hamda Shahrizabz davlat pedagogika instituti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida milliy adabiyotlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi tamoyillari, milliy adabiyot va milliy davlatchilik tarixi, adabiy turlar va janrlar evolyutsiyasi, badiiy asar arxitektonikasi, lingvopoetikasiga doir quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: musulmon Sharqi mintaqasida milliy adabiyotlarning paydo bo'lishi va ularning evolyutsion taraqqiyoti, milliy, xususan, o'zbek, turk, ozarbayjon, fors-tojik, afg'on, tatar, arab adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, adabiy janrlar va turlarning evolyutsiyasi va genezisi (Oksford universiteti, The Roshan Institute for Persian Studies at the University of Maryland, دانشگاه تهران, İstanbul Üniversitesi, Gazi Üniversitesi, әл-Фараби атындағы Қазақ Ұлттық университеті, O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat universiteti); jahon qo'lyozmalari fondlarida saqlanayotgan adabiy manbalarni manbashunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish, ularning faksimile nusxalari va tanqidiy matnlarini tayyorlash va nashr qilish (әл-Фараби атындағы Қазақ Ұлттық университеті, Институт Востоковедения, Институт Азии и Африки при МГУ, Восточный факультет при СПбГУ, Институт восточных рукописей в Санкт-Петербурге, O'zFA Sharqshunoslik instituti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi, Samarqand davlat universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Shahrizabz davlat pedagogika instituti).

Jahon adabiyotshunosligida ijodiy jarayon xususiyatlarini, ijodiy laboratoriyalarni yangicha yondashuv va konsepsiyalar yordamida tadqiq etish uchun quyidagi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: Sharq mumtoz poetikasining o'ziga xos xususiyatlari, lirik janrlarning an'anaviy qonuniyatlari va tarixiy takomil bosqichlari, tasavvuf ta'limoti, timsollarning ramziy ma'nolari,

<https://nelc.osu.edu/>; <http://ut.ac.ir/>; <http://www.um.ac.ir/>; <https://www.amu.ac.in/>; <http://www.du.ac.in/du/>; www.iaas.msu.ru/; <https://www.ivran.ru/>; <https://spbu.ru/>; www.orient.spbu.ru/ru/; <http://www.orientalstudies.ru/>; <http://oriental-studies.org.ua/uk/home> ;<http://zoa.dmt.tj/>; <http://iza.tj/ru/institut-yazyka-literatury-vostokovedeniya-i-pismennogo-naslediya-im-rudaki>; <http://tashgiv.uz/ru/>; <http://www.samdu.uz> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

mumtoz she'riyatda poetik an'ana sintezining namoyon bo'lish mezonlarini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotida asrlar sinovidan o'tgan buyuk asarlarga poetik tafakkurning yangilanish mahsuli sifatida baho beriladi. Zero, eski qoliplarda yaratilgan asar o'quvchiga yangilik bermaydi. Yangilangan poetik tafakkur zahirida jahon adabiyotshunosligida poetika, badiiy ijoddagi yangilanish, an'ana va novatorlik masalalarini chuqur o'rganish taqozo etiladi.

Dunyoning ko'plab adabiyotshunoslari yaratgan ilmiy tadqiqotlarda manbalarga shu nuqtayi nazardan qaralganini kuzatamiz. Asarlarda mavzuning qo'yilishi, obraz yaratish tamoyillari, janrlarning takomil xususiyatlari kabi masalalarning fundamental asosi, taraqqiyotini belgilash bo'yicha jahon va qardosh xalqlar adabiyotshunosligida muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

I.Y.Krachkovskiy, D.V.Frolov, D.S.Lixachev, B.V.Tomashevskiy, L.I. Timofeyev, I.V.Ctebleva, Yan Parandovskiy, Y.M. Lotman, A.B. Kudelin, V.M. Jirmunskiy, Y. Borev, N.Y.Chalisova (Rossiya), H.Bloshman (Germaniya), D.De Uis (AQSH), M.Simidcheva (Kanada), R.Musulmonqulov, U.Toirov (Tojikiston), Sh.S.Kaliyeva (Qozog'iston) kabi olimlar o'z tadqiqotlarida mumtoz poetika, an'ana va novatorlik, obraz va janrlar bilan bog'liq muammolarni kun tartibiga qo'yib, ularga doir o'z qarashlarini bildirib o'tganlar³.

Dunyo adabiyotshunosligida mavjud adabiy-estetik tafakkur mahsullari XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodini o'rganish, asarlarida ilgari surilgan mavzu va g'oyalar mohiyatini yoritishda ham asos bo'lib xizmat qildi.

Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Tojikiston, Ozarbayjon olimlarining tadqiqotlarida o'rta asrlarda o'zbek adabiyoti, ayniqsa, Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlariga oid manbalar, ularning umumturkiy adabiyotning rivojiga ko'rsatgan ta'siri, musulmon Sharqi mintaqasida adabiy aloqalar masalasi, turkiy aruz va qofiyaning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy uslub, an'ana va

³ Крачковский И.Ю. Арабская поэтика в IX веке / Изб. Соч., – М. – Л.: Академия наук, Т. II. 1956; Фролов Д.В. Арабская филология. – М.: Языки славянской культуры, 2006; Фролов Д.В. Классический арабский стих. История и теория аруда. – М.: Наука. 1991; Лихачев Д.С. Избранные работы в трех томах. Том I. Поэтика Древнерусской литературы. – Л.: Художественная литература, 1987; Томашевский Н.Б. Традиция и новизна. – М.: Художественная литература, 1981; Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1976; Стеблева И.В. Семантика газелей Бабура. – М.: Наука, 1982; Парандовский Ян. Алхимия слова. – М.: Наука, 1972; Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Структура стиха. – Л.: Просвещение, 1972; Куделин А.Б. Классическая арабо-испанская поэзия. – М.: Наука, 1973; Жирмунский В.М. Теория литературы Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977; Боров Ю. Эстетика литературы. – М.: Наука, 2003; Blochmann H. Prosody of the Persians according to Saifi, Jami and other writers. Calcutta, 1872; DeWeese D. The Predecessors of Nava'i in the "Funun al-balagah" of Shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century // Turkish studies, edited by Sinasi Tekin, 2005; Simidchieva M. Imitation and Innovations in Timurid Poetics: Kashifi's Badayi al-afkar and Predecessors, al-Mu'jam and Hada'iq al-sihr // Iranian Studies, volume 36, number 4, 2003; Чалисова Н.Ю. Персидская поэзия на весах поэтики // Шамс Кайс Рази. Свод правил персидской поэзии. – М.: Восточная литература, 1997; Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X-XV вв.). – М.: Наука, 1989; Тухлиев Б. Вопросы поэтики "Кутадгу билиг" Юсуфа Хас Хаджиба. – Т., 2004.

novatorlik, adabiy tarjima poetikasi kabi muammolarni kun tartibiga qo'yib, ularga doir o'z qarashlarini bildirib o'tganlar⁴.

Guvoh bo'lganimizdek, o'zbek mumtoz adabiyotining tarixi, uning rivojlanish tamoyillari, milliy adabiyot va o'zbek adabiy tili taraqqiyoti muammolari har bir tarixiy davrda tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Ayniqsa, o'zbek adabiyoti tarixida alohida bir bosqichni tashkil etgan Qo'qon adabiy muhiti hamda Amiriy, Gulxaniy, Nodira, qolaversa, G'oziy, Sadoiy, Muhyi kabi shoirlarning hayoti va ijodi haqidagi xulosalarning ko'pi ilmiy bahsmunozalarning asosiy mavzusi bo'lib qolmoqda. Bu esa Qo'qon adabiy muhiti namoyandalarining har biri haqida mukammal tadqiqot olib borib, mazkur jarayonni tarixiy-qiyosiy yo'nalishda o'rganishni taqozo etadi.

Ta'kidlash kerakki, quyidagi O'zbekiston va Tojikiston olimlari Qo'qon adabiy muhiti namoyandalarining ijodini tadqiq etishda bardavomdirlar: G'.Karimov, P.Qayumov, A.Qayumov, Sh.Yusupov, I.Haqqul, M.Qodirova, T.Jalolov, M.Hamidova, A.Xudoyberdiyev, T.Qurbon, M.Shoniyozov, N.Jabborov, O.Jo'raboyev, A.Dehqonov, D.Zohidova, A.Turdialiyev, S.Eshonova, Q.Pardayev, I.Adizova, Z.Qobilova, I.Sulaymonov, A.Muhammadiyev, N.Muhiddinova kabi olimlar Qo'qon adabiy muhiti va uning asoschilari – Amiriy va Nodira, bu adabiy muhitning namoyandalari hisoblanmish Huvaydo, Fazliy, Zaliliy, Haziniy, G'aribiy, Muhayyir, Niso, Xoniy, Uvaysiy, Sadoiy, Muhyi, Qoriy, Muqimiy, Mahmud Hakim Yayfaniylarning hayoti va ijodi haqida; E.Shodiyev, E.Rajabov, S.Tilabov, Z.Sa'dullayeva, M.Ne'matova, N.Oxunjonova, Z.O'lmasovalar esa Qo'qon adabiy muhitiga daxldor bo'lgan xo'jandlik ijodkorlar Nozil Xo'jandiy, Shaydo Xo'jandiylarning adabiy merosi, shuningdek, zullisonaynlik an'anasi, o'zbek-tojik adabiy aloqalari, o'sha davr she'riyatining badiiyati kabi masalalar bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib bordilar⁵.

⁴ Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио-Ташкент: TIAS, 2010. – С. 744 \\\ Levi S.C. “The Fergana Valley at the Crossroads of World History: The Rise of Khoqand, 1709–1822”. Journal of Global History 2/2, 2007. – P.213-232. \\\ Bregel Y. “Khoqand Khānate”, The Oxford Encyclopedia of the Modern Islamic World, ed. by J. L. Esposito (Oxford, 1995), Vol. II. – P. 430-431.

⁵ Абдуллаева Д. Усмонхўжа Зорий ҳаёти ва ижоди: Филология фанлари номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2003. – 24 б.; Абдуллаев Р. Амирушшуаро Муиззийнинг ижодий маҳорати: Филология фанлари номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2000. – 25 б.; Дехқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди. Филология фанлари номз. дис. автореф. – Тошкент, 2007. – 25 б.; Жумахўжа Н. Миллий мустақиллик мафқураси ва адабий мерос (XVII-XIX асрлар ўзбек шеърини асосида). Филол. фан. докт. ...дисс. – Т., 1999. – 52 б.; Жўрабоев О. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси. Филол. фан. ном. дисс. – Т.: 2003. – 158 б.; Жўраев Ж. Жунуний ва унинг “Рисолаи муаммо” асари: Филология фанлари номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Зоҳидова Д. Ғарибий ва унинг девони: Филология фанлари номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2006. – 23 б.; Каримова Д. Мирзо Содик Мунший Жондорий адабий меросининг жанрий таркиби ва бадиияти: Филология фанлари номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 1997. – 27 б.; Муҳаммадиев А. Муҳйининг туркий ва форсий девони поэтикаси: Филология фанлари номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2008. – 27 б.; Равшанов Ф. Холис ва унинг адабий мероси: Филология фанлари номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1997. – 25 б.; Сулаймонов И. Мулла Маҳмуд Қорий ва унинг поэтик мероси. Филология фанлари номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2010. – 26 б.; Турдиалиев А. Маҳмуд Ҳаким Яйфаний адабий ва илмий меросининг манбалари: Филол. фанлари номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1997. – 25 б.; Худойбердиев А. Жизнь и творчество Ходжаназара Хувайдо. Филология фанлари номз. ...дисс. автореф. – Тошкент: 1990. – 23 б.; Эшмонов Ф. Мужрим – Обиднинг туркий ижодиёти: Филология фанлари номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2002. – 23 б.; Эшонова С. XX аср бошларидаги Қўқон шоирлари (Нисо ва Хоний): Филология фанлари номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2006. – 26 б.; Эшонқулова С. Нодира шеърини тарихий образлар. Филология фанлари номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2011. – 26 б.; Қодирова М. Иброҳим Даврон ва унинг адабий мероси. Филология

Keyingi yillarda garchi o'rganayotgan mavzumizga aloqador ba'zi dissertatsiyalar muvaffaqiyatli himoya qilingan bo'lsa-da, Qo'qon adabiy muhiti takomilida ijodiy an'ana va poetik tafakkur yangilanishi masalalarini bu adabiy muhitning yorqin namoyandalari, xususan, Muhyi va uning zamondoshlari asarlari misolida o'rganish ehtiyoji seziladi. Negaki, ularning ijodidagi o'ziga xos badiiy xususiyatlar, lirik merosining g'oyaviy-badiiy mundariyasi, poetik jihatlari, davr adabiy an'anasiga bo'lgan munosabatlari va ijodiy o'ziga xoslik masalalari, davr shuarosi ijodidagi yangicha poetik tafakkur unsurlari keng monografik jihatdan tadqiq etilgan emas.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya mavzusi Shahrizabz davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot rejasining "O'zbek tili va adabiyoti ta'limining zamonaviy metodikasi muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qo'qon adabiy muhiti takomilida ijodiy an'ana va poetik tafakkur yangilanishi jarayonlarini Muhyi va uning zamondoshlari asarlari misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qo'qon adabiy muhitining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr avvalidagi rivojida mumtoz she'riyat an'anasiga individual ijodiy tafakkur asosida yondashuv, poetik mazmunning ijtimoiylashuvi, badiiy obraz va timsollar yangilanishi singari adabiy-estetik omillarni Muhyi va uning zamondoshlari asarlari misolida tahlil qilib, ilmiy-nazariy jihatdan baholash;

ushbu adabiy muhitning milliy estetik tafakkur takomilida tutgan o'rni Muqimiy va Furqat kabi shoirlar ijodiy salohiyati bilangina bog'lanib kelgani ilmiy haqiqatga muvofiq emasligini, adabiy muhit rivojiga Muhyi va uning davrasi vakillari ijodining ham ta'siri katta ekanini, Muhyi nazmiy asarlari misolida lirik qahramon tabiati, ramz va obraz munosabati, timsol yaratish mahorati, janrlar rang-barangligi, qofiya, radif va badiiy san'atlarni qo'llashga individual yondashuv mezonlarini asoslash;

adabiyotning yangicha ma'rifatparvarlikdan milliy uyg'onish va jadid estetik tafakkuri sari takomillashuv qonuniyatlariga aniqlik kiritib, milliy uyg'onish davri shoirlari ijodida an'anaviy lirik janrlar (g'azal, qit'a va ruboiy)ning yangilanishi hamda zamonaviy estetik tafakkur bilan sintezi, tasavvufiy obraz va timsollarning mohiyati o'zgarishlari, shuningdek, ramziy va mubolag'ali tasvir vositalarining rivojlanishida Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari nazmiy asarlarining muhim o'rnini ilmiy asosda yoritish;

fanlari nomz. ...дис. автореф. – Тошкент, 2005. – 24 б.; Қобилова З. Амирий ва унинг адабий фаолияти: Филология фанлари номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.; Қобилова З. Бадий ижодда таъсир ва издошлик масалалари (Амирий шеърляти мисолида). Филол. фан. докт. (DSc) дисс... – Т., 2021. – 77 б.; Адизова И. Увайсий шеърлятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши. Филол. фан. докт. (DSc) дисс. автореф. – Т., 2020. – 68 б.; Ражабов Э. "Мажмӯат-уш-шуаро"-и Фазли Мамагонӣ ва суннатҳои таъкиранигорӣ дар адабиёти тоҷикӣ асри XIX -аввали асри XX. \ \ Ўлмасова З. Дузабонӣ ҳамчун муҳимтарин шакли равобити адабиёти тоҷику ўзбек.

Muhyi va u bilan davradosh ijodkorlarning boshqa adabiy maktablar namoyandalari bilan o‘zaro aloqalari, Qo‘qon, Buxoro, Xiva va Toshkent shoir-u adiblari badiiy tafakkurdagi uyg‘unlik va o‘ziga xoslik, ularning o‘zaro ijodiy ta’siri qiyosi natijasida adabiy muhit va uning xususiyatlari to‘g‘risida ilmiy-nazariy umumlashmalar chiqarish;

Muhyi va uning zamondoshlari asarlarini qo‘lyozma va toshbosma manbalardagi ishonchli matnlar asosida taqqoslab o‘rganish orqali Turkistonning ijtimoiy-siyosiy vaziyati, davr shoirlari ijodiga ta’siri, shuningdek, jamiyat hodisalarining ijodkorlar dunyoqarashida aks etishi baholanib, “Tarixi Muhyi Xo‘qandiy” asarining fors-tojik tilidan tarjimasini ilk bor amalga oshirish va uning Muhyi ijodidagi o‘rnini ilmiy asosda aniqlash.

Tadqiqotning ushbu vazifalari Qo‘qon adabiy muhitining poetik tafakkur va ijodiy an‘analardagi o‘zgarishlarini har tomonlama ilmiy asoslashga, Muhyi va uning zamondoshlarining adabiy merosini yanada chuqur o‘rganishga va olingan natijalarni ta’lim hamda madaniyat sohalarida qo‘llashga qaratilgan.

Tadqiqotning obyekti. O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning nodir qo‘lyozma asarlar fondida saqlanayotgan XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhiti namoyandalarining nashr etilgan barcha asarlari tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini Qo‘qon adabiy muhiti takomilidagi ijodiy an‘ana va poetik tafakkur yangilanishi jarayonlari, ayniqsa, Muhyi va uning zamondoshlari asarlarida namoyon bo‘lgan poetik xususiyatlar va badiiy yangiliklar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-tipologik, qiyosiy-tahliliy, tekstologik, struktural, germeneytik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ldi:

Muhyi va uning zamondoshlari ijodlari misolida Qo‘qon adabiy muhitining rivojlanishida mumtoz she‘riyat an‘analaridagi oshiqona obrazlarning sodda va ta’sirchan shaklda ifodalanishi kabi ijodiy yondashuv hamda “oshiq”, “mashuqa”, “charx”, “ishq”, “xilvat” kabi badiiy obrazlarning qo‘llanilishida ijtimoiylik kasb etishi aniqlangan;

Qo‘qon adabiy muhitida Muhyi ijodining ham ta’siri katta ekani, uning nazmiy asarlari misolida lirik qahramonning psixologik holatidagi dinamik, analitik ko‘rinishlarning yetakchiligi hamda qofiya, radif va badiiy san‘atlarni qo‘llashdagi xalqonalik, kuchli ramzlardan qochish, tushunarlik kabi individual yondashuvi asoslangan;

milliy uyg‘onish davri shoirlari ijodida an‘anaviy lirik janrlarning mazmuniy yangilanishi, ijtimoiy va milliy mavzularning kirib kelishi kabi yangi qirralari aniqlanib, g‘azal, qit‘a va ruboiy janrlari xususiyatlarining o‘zgarishida Muhyi va uning zamondoshlari asarlaridagi ijtimoiy tanqid, milliy g‘urur va ma’rifatparvarlik jihatlari ochib berilgan;

milliy uyg‘onish va jadid estetik tafakkuri takomillashuvida Muhyi va uning zamondoshlari ijodida “gul”, “bulbul”, “oyina”, “aql”, “qalb” kabi tasavvufiy

obrazlar tabiatining o'zgarishi va ularning jamiyatdagi zulm va nodonlikni aks ettiruvchi vositaga aylangani isbotlangan;

Muhyi va u bilan davradosh ijodkorlarning boshqa adabiy maktablar namoyandalari bilan o'zaro aloqalari, Qo'qon, Buxoro, Xiva va Toshkent adabiy muhitlari vakillari ijodidagi "kiyik", "oyina", "murg'i vahm" kabi tasavvufiy ramz va timsollarning ilm-ma'rifat ifodasidagi uyg'unligi va "Asrorqul", "Tolibboy", "dar mazammati Bektur" kabi tanqidiy, hajviy asarlar orqali Qo'qon adabiy muhitining farqli jihatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari oliy o'quv yurtlarida o'zbek adabiyoti tarixi, mumtoz adabiyot, tasavvuf adabiyoti kabi fanlardan qo'shimcha manba sifatida foydalanish uchun tavsiya etiladi. Qolaversa, Qo'qon adabiy muhiti va Muhyi ijodi bo'yicha maxsus ma'ruzalar va seminar mashg'ulotlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlash nazarda tutiladi;

Qo'qon adabiy muhiti vakillarining qo'lyozmalari va asarlarini nashr qilish. Tadqiqot davomida o'rganilgan qo'lyozma manbalar va kam o'rganilgan asarlar ilmiy muomalaga kiritiladi;

"Tarixi Muhyi Xo'qandiy" asari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Bu, o'z navbatida, adabiyotshunoslik va tarixshunoslik fanlaridagi ayrim kemptiklikni to'ldirishda amaliy yordam beradi;

Muhyi va uning zamondoshlarining ijodiy merosini keng targ'ib qilish maqsadida ularning asarlarini to'plab, ilmiy nashr sifatida chop etish taklif etiladi;

Qo'qon adabiy muhiti madaniy meros sifatida targ'ib etilgan. Tadqiqot natijalari asosida Qo'qon adabiy muhitiga oid ilmiy-ma'rifiy tadbirlar, anjumanlar va konferensiyalar tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Muhyi va boshqa shoirlarning merosi ommaviy axborot vositalari, internet platformalari orqali keng targ'ib qilinishiga zamin yaratiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, nazariy ma'lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillarning tarixiy-tipologik, qiyosiy-tahliliy, tekstologik, struktural, germeneytik tadqiq usullari vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qo'qon adabiy muhitining rivojlanishini tahlil qilish: Muhyi va uning zamondoshlari ijodi orqali Qo'qon adabiy maktabining shakllanishi, an'analari va xususiyatlari ilmiy asosda o'rganilishi; poetik tafakkurdagi yangilanishni aniqlash; Muhyi va zamondoshlarining adabiy merosini chuqur o'rganish; Sharq adabiy an'analari va mahalliy xususiyatlarning uyg'unligi masalalarini o'rganish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalaridagi adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik darslarida foydalanilish, Muhyi va uning zamondoshlari ijodi bo'yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun katta manba vazifasini o'tashi, Muhyi va unga zamondosh shoirlar asarlarini qayta chop etish, maqolalar yozish va ularning ahamiyatini ommaga yetkazishga xizmat qilishi,

Qo‘qon adabiy muhitining tarixiy ahamiyatini kengroq yoritish va uni zamonaviy madaniyat va ijodga integratsiya qilish imkonini yaratishi hamda bu natijalar o‘zbek adabiyoti tarixini yanada boyitish, an’anaviy va yangi poetik tafakkurni tadqiq qilishda muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Muhyi va uning zamondoshlari asarlarida ijodiy an‘ana va poetik tafakkur yangilanishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Muhyi va uning zamondoshlari ijodlari misolida Qo‘qon adabiy muhitining rivojlanishida mumtoz she‘riyat an‘analaridagi oshiqona obrazlarning sodda va ta‘sirchan shaklda ifodalanishi kabi ijodiy yondashuv hamda “oshiq”, “mashuqa”, “charx”, “ishq”, “xilvat” kabi badiiy obrazlarning qo‘llanilishida ijtimoiylik kasb etishi aniqlanganligiga doir ilmiy-nazariy natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan (PF-201912258) “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” grant loyiha ishini amalga oshirishda muhim nazariy manba sifatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 26-avgustdagi 04/1-2185-son ma‘lumotnomasi). Natijada Muhyi va uning zamondoshlari ijodi misolida Qo‘qon adabiy muhitining rivojlanishida mumtoz she‘riyat an‘analariga individual ijodiy yondashuvi, she‘riy mazmunning ijtimoiy yo‘nalishi, badiiy obrazlar va timsollarning yangilanishi kabi adabiy-estetik omillar aniqlangan;

Qo‘qon adabiy muhitida Muhyi ijodining ham ta‘siri katta ekani, uning nazmiy asarlari misolida lirik qahramonning psixologik holatidagi dinamik, analitik ko‘rinishlarning yetakchiligi hamda qofiya, radif va badiiy san‘atlarni qo‘llashdagi xalqonalik, kuchli ramzlardan qochish, tushunarlik kabi individual yondashuvi asoslanganligiga oid xulosalaridan 2019-2021-yillarda bajarilgan I-OT-2019-42 “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe‘l-atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish” nomli innovatsion loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 11-iyundagi 01/4-2407-son ma‘lumotnomasi). Natijada adabiyotning yangicha ma‘rifatparvarlikdan milliy uyg‘onish va jadid estetik tafakkuri sari takomillashuvi aniqlanib, Muhyi va uning zamondoshlari ijodida tasavvufiy obraz va timsollar tabiatining hamda ma‘naviy-estetik mezonlarning yangilanishi, ramziy va mubolag‘ali tasvirlarning rivojlanishi isbotlangan;

milliy uyg‘onish davri shoirlari ijodida an’anaviy lirik janrlarning mazmuniy yangilanishi, ijtimoiy va milliy mavzularning kirib kelishi kabi yangi qirralari aniqlanib, g‘azal, qit‘a va ruboiy janrlari xususiyatlarining o‘zgarishida Muhyi va uning zamondoshlari asarlaridagi ijtimoiy tanqid, milliy g‘urur va ma‘rifatparvarlik jihatlari ochib berilganligiga oid xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 11-iyundagi

01/4-2406-son ma'lumotnomasi). Natijada Muhyi va u bilan davradosh ijodkorlarning boshqa adabiy maktablar namoyandalari bilan o'zaro aloqalari, Qo'qon, Buxoro, Xiva va Toshkent adabiy muhirlari vakillari ijodiy tafakkurdagi uyg'unlik va farqli jihatlar hamda ularning o'zaro ijodiy ta'siri aniqlangan;

milliy uyg'unish va jadid estetik tafakkuri takomillashuvida Muhyi va uning zamondoshlari ijodida "gul", "bulbul", "oyina", "aql", "qalb" kabi tasavvufiy obrazlar tabiatining o'zgarishi va ularning jamiyatdagi zulm va nodonlikni aks ettiruvchi vositaga aylangani isbotlanganligiga oid xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarda bajarilgan IL-402104209 "Axborot qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksioni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" nomli innovatsion loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 11-iyundagi 01/4-2408-son ma'lumotnomasi). Natijada milliy uyg'unish davri shoirlari ijodida an'anaviy lirik janrlar yangi qirralarining kashf etilishi va yanada takomillashuvi hamda g'azal, qit'a va ruboiy janrlari xususiyatlarining o'zgarishida Muhyi va unga davradosh ijodkorlar nazmiy asarlarining o'rni nihoyatda beqiyosligi ochib berilgan;

Muhyi va u bilan davradosh ijodkorlarning boshqa adabiy maktablar namoyandalari bilan o'zaro aloqalari, Qo'qon, Buxoro, Xiva va Toshkent adabiy muhirlari vakillari ijodidagi "kiyik", "oyina", "murg'i vahm" kabi tasavvufiy ramz va timsollarning ilm-ma'rifat ifodasidagi uyg'unligi va "Asrorqul", "Tolibboy", "dar mazammati Bektur" kabi tanqidiy, hajviy asarlar orqali Qo'qon adabiy muhitining farqli jihatlari aniqlanganligiga doir xulosalardan 2023–2024-yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlari ssenariysini yozishda foydalanildi va muallif bilan suhbatlar uyushtirildi (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 4-apreldagi 26-36-970-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuvlar ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilib, ularning ilmiy-ma'rifiy saviyasi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari ilmiy-amaliy va ilmiy-nazariy konferensiyalarda, shu jumladan, 13 ta respublika va 9 ta xalqaro konferensiya va seminarlarda o'z aksini topgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 50 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan 3 ta monografiya, 1 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, jumladan, xorijiy jurnallarda 5 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 256 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi amalga oshirilgan, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, uning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi bayon qilingan, ishning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari hamda asosiy tadqiqot usullari ko‘rsatib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Milliy uyg‘onish davri Qo‘qon adabiy muhitida ijodiy an‘ananing o‘ziga xosligi”** deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan tarkib topgan. **“Ijodiy an‘ana genezisi va namoyon bo‘lish shakllari”**, deb nomlangan dastlabki fasli o‘zbek adabiyoti tarixida muhim bo‘lgan milliy uyg‘onish davri Qo‘qon adabiy muhitining ijodiy an‘analari tahliliga bag‘ishlangan. Ushbu faslda adabiy an‘analarning genezisi, tadrijiy takomili va o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan; an‘ana va novatorlik uyg‘unligi, muvashshah va badiha she‘rlarning o‘rni, maktub she‘rlarning yangi talqini, zullisonaynlik an‘anasining rivoji kabi masalalar ilmiy o‘rganilgan.

Adabiy an‘ana – avloddan avlodga o‘tgan badiiy tajribalar majmuasi bo‘lib, o‘zbek adabiyotida an‘ana va novatorlik uyg‘unligi adabiyot taraqqiyotiga xizmat qilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Qo‘qon adabiy muhiti milliy uyg‘onish davrida mumtoz adabiyot an‘analarini asrab-avaylash va yangi g‘oyaviy-estetik talablar asosida rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Ushbu muhitda Alisher Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, Anvari, Bedil kabi ulug‘ ijodkorlarning ta‘siri, shuningdek, zullisonaynlik, devon tuzish, muvashshah va maktub she‘rlar kabi an‘analar muhim o‘rin tutdi.

Qo‘qon adabiy muhitida Muhyi, Furqat, Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlar mumtoz an‘analarni saqlab, ijtimoiy-ma‘rifiy mavzularni kuchaytirib, adabiyotning jamiyatga ta‘sirini oshirdilar. Bu davrda ijodiy an‘ananing namoyon bo‘lish shakllari ham har bir shoir ijodida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ldi. Navoiyning devon tuzish qoidalari davom ettirilib, yangi poetik obrazlar bilan boyitildi. Davr shuarosi ijodiga Fuzuliy ijodi, ayniqsa, katta ta‘sir ko‘rsatdi. Masalan, Zavqiyda Fuzuliyning mashhur “aylar orzu” radifli g‘azaliga bog‘lagan muxammasi borki, bu g‘azalga muxammas bog‘lash shu davr ijodkorlari uchun go‘yoki an‘ana tusini olgan edi. Fuzuliy devonida:

Bulbuli dil gulshani ruxsoring aylar orzu,

To‘tiyi jon la‘li shakkarboring aylar orzu.⁶ – Fuzuliyning mazkur g‘azalidan Zavqiydan tashqari Muhyi va Muqimiylar ham baqamti ta‘silangan holda ijod

⁶ Фузулий Муҳаммад. Асарлар. Икки жилдлик (Озарбайжончадан нашрга тайёрловчи Холид Расул). – Тошкент: Бадий адабиёт, 1968. – 384 б. 262-бет.

etishgan. Dissertatsiyada mazkur ijodiy ta'sirlar (Zavqiy, Muhyi, Muqimiy) misollar yordamida tahlil etilgan va tegishli xulosalar chiqarilgan.

Dissertatsiya birinchi bobining ikkinchi fasli – “Qo‘qon adabiy muhiti va boshqa adabiy maktablar an‘analarining o‘ziga xosligi hamda uyg‘unligi masalalari” mavzusida yozilgan bo‘lib, milliy uyg‘onish davrida Qo‘qon adabiy muhitining boshqa adabiy maktablar – Buxoro, Xiva, Toshkent, Samarqand va Kattaqo‘rg‘on bilan o‘zaro ta’siri, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va uyg‘unligini ilmiy asosda tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Adabiy muhit adabiy oqimlar va yo‘nalishlardan farq qiladi. Bir adabiy muhitda bir necha oqim va yo‘nalish bo‘lishi mumkin. Adabiy muhit boshqa joylardagi adib va shoirlardan o‘ziga xosligi, ijodiy alohidaligi, badiiy fikrlash tarzidagi betakrorligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Toshkent, Buxoro, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Xiva, Qo‘qon, Andijon, Shahrixon adabiy muhit (maktab)lari mavjud bo‘lib, ularning yetuk vakillari tomonidan yaratilgan asarlar o‘zbek adabiyotining nodir namunalari hisoblanadi.

Bizningcha, adabiy muhit bir qadar salmoqli ma‘noga ega. Albatta, adabiy muhit deganda, ta’kidlaganimizdek, ko‘plab shoirlar, olim-u fozillar intilgan makon nazarda tutilishi maqsadga muvofiqdir. Adabiy muhitning asosiy shartlaridan biri esa ahli xirad intilgan bu makon davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan ta‘minot va ihotaga ega bo‘lishidir. Boshqacha aytganda, siyosiy brendning mavjudligi nazarda tutiladi.

Qo‘qon adabiy muhitida yashab ijod etgan shoirlar ham Amir Umarxon barpo etgan ma‘rifatga asoslangan saltanat negizida (keyingi mang‘it urug‘iga mansub xonlar davrida ham) nash‘-u namo etishgani barchamizga sir emas. Chunki Umarxon nafaqat davlat arbobi, balki (oilaviy) yetuk ijodkor ham edi. U Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedlni o‘ziga (vaysiy) ustoz deb bilgan va ulardan ijod sirlarini mukammal o‘rgangan, ularga ergashib ijod qilgan, g‘zallariga muxammaslar bog‘lagan.

Ta’kidlanganidek, adabiy muhitning vujudga kelishi, albatta, yirik ijodkorlar faoliyati, ular yaratgan ijodiy maktablar bilan bog‘liqdir. Har bir davrning ko‘zga ko‘ringan hassos ijodkori (masalan, Muhyi yoki Muqimiy) o‘z maktabini yaratishi mumkin.

Faslda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda adabiy-madaniy hayotning faollashuvi, an‘anaviy she‘riyat bilan yangicha uslubning uyg‘unlashuvi kabi muhim jarayonlar tahlil qilingan. Qo‘qon adabiy muhitining nafaqat mahalliy, balki butun turkiy adabiy makondagi o‘rni yoritilib, uning Buxoro, Xiva, Toshkent va Samarqand adabiy maktablari bilan o‘zaro aloqalari ilmiy asosda tadqiq etilgan.

Tadqiqotda Qo‘qon adabiy muhitining o‘ziga xosligi sifatida uning mumtoz an‘analarni saqlab qolish bilan birga, milliy uyg‘onish g‘oyalariga mos yangi badiiy yo‘nalishlarni shakllantirgani asoslangan. Faslda Qo‘qon xonligining 1876-yilda tugatilgani, buning natijasida saroy adabiyotining yo‘qolishi va shoirlarning Toshkent, Andijon, Namangan, Samarqand kabi shaharlarda alohida adabiy guruhlar shaklida faoliyat yuritgani ta’kidlanadi. Bu guruhlar ijodida siyosiy-

ijtimoiy o'zgarishlar, ma'rifatparvarlik va milliy o'zlikni anglash g'oyalari kuchli aks etgani dalillar bilan asoslanadi.

Muhyi va Muqimiy bosh bo'lgan qadrdonlarning davrasi juda ham keng edi. Bu adabiy davrlar davomiy ishtirokchilar – Furqat, Nisbatiy, Haziniy, Tajalliy, Kamiy, Muhayyir, Xilvatiy kabilar bilan mustahkamlanar edi. Qolaversa, ijod ahlining ko'pi Muhyi bilan yaqin bo'lishga intilganlar va bu haqda alohida ta'kidlar yozib qoldirganlar. Ana shunday ta'kidlar dissertatsiyada batafsil sharhlangan⁷. Muhyining Namanganga safari va Xilvatiy bilan o'zaro ijodiy munosabatlari, Fansurullohbek Xisrav bilan aloqalari, shuningdek, Muqimiy va Zavqiy bilan hajviy janrdagi uyg'unligi masalalari ham o'rganildi.

Faslda adabiy muhitlar o'rtasidagi ijodiy hamkorlikka alohida e'tibor qaratilgan. Toshkent, Samarqand va Qo'qon adabiy muhitlari o'rtasidagi aloqalar, "Oyna", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" kabi gazeta va jurnallar orqali amalga oshirilgan ijodiy munosabatlar asosli dalillar bilan ko'rsatilgan. Vasliyning Muqimiy, Furqat, Kamiy kabi shoirlar g'azallariga muxammas bog'lashi adabiy muhitlar o'rtasidagi mustahkam ko'priknig dalili sifatida talqin qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Muhyi va zamondoshlari she'riyatida poetik janr va mazmun yangilanishining manbaviy asoslari hamda adabiy-estetik omillari"** deb nomlangan. Bobning birinchi fasli **"Poetik janr va mazmun yangilanishining manbaviy negizlari, ijtimoiy-siyosiy omillari"** mavzusida yozilgan bo'lib, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Qo'qon adabiy muhitidagi poetik janr va mazmun yangilanishining manbaviy asoslari, shuningdek, bu jarayonda ijtimoiy-siyosiy omillarning rolini ilmiy asosda tahlil qilishga bag'ishlangan.

Adabiyot jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, uning rivoji ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, poetik janr va mazmun yangilanishining sabablari va manbalari turli omillar bilan bog'liq bo'lib, ularni bir necha asosiy yo'nalishda (manbaviy negizlar, folklor va xalq ijodi, ilmiy-ma'rifiy manbalar, adabiy meros va tarjima asarlari) tahlil qilish mumkin.

Dissertatsiyamiz doirasida o'rganilayotgan Muhyi va uning zamondoshlari she'riyati va unda poetik janr va mazmun yangilanishining manbaviy asoslari mazkur ijodkorlar tomonidan yozib qoldirilgan qo'lyozma va toshbosma asarlar hamda shu davrlarda yaratilgan bayozlarga borib taqaladi. Bu asarlarning kattagina qismi mutaxassis olimlar tomonidan hozirga qadar o'rganilgan va ilmiy istifodaga kiritilgan bo'lsa-da, to'la tadqiq etilmagan, hali o'rganilishi kerak bo'lgan nodir qo'lyozma asarlar bisyor. Ajdodlarimizning O'zbekiston va qardosh respublikalarning nodir fondlarida saqlanib kelinayotgan adabiy meroslari ilmiy jihatdan mukammal o'rganilib, ommaga to'la taqdim etilsa, ular yashagan davr tarixi, adabiy muhiti va ijtimoiy-siyosiy vaziyatlari yanada aniqroq ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Xuddi shu ma'noda dissertatsiyada Muhyi va unga zamondosh shoirlarning boy adabiy-ilmiy meroslari manbalari ilmiy sharhlandi. Masalan, Muhyining

⁷ Зоҳидов Н. Муҳйиддин Муҳаммад Ризо охунд ўғли Муҳйи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1994. №3. – Б. 46-48.

“Devoni Muhyi”, “Tarixi Muhyi Xo‘qandiy”⁸, “Majmu‘oti ash‘ori Muhyi”⁹, “G‘azaliyoti Muhyi”¹⁰ kabi asarlari shu davr shu‘arosi tomonidan tuzilgan toshbosma va qo‘lyozma bayozlar o‘rganildi:

1. Qo‘lyozma bayozlar: Bayoz. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Qo‘lyozmalar institutida №2407-u va №3929-u inventar raqamlari bilan saqlanayotgan qo‘lyozma. Bayozi Gulshani asror. O‘ZFA qo‘lyozmalar fondi. Inventar raqami: №170-o‘. Bayozi Muhyi (Farg‘ona). Farg‘ona viloyatidagi G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot muzeyi. Inventar raqami: №101. Bayozi Muhyi. O‘ZFA qo‘lyozma asarlar bo‘limi. Inventar raqami: №9874. Shuningdek, O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan qo‘lyozma bayoz va majmualar: Inv. № 1325, № 1821, № 4179, № 4207, № 5666, № 5736, № 6352, № 7512, № 7521, № 7710, № 9072, № 9919, № 9971, № 10072. Hamda O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti H.S.Sulaymonov fondida saqlanayotgan qo‘lyozma bayoz va majmualar: Inv. № 13, № 234, № 322, № 995, № 1000, № 1473, № 1483, № 1502, № 1538, № 1895, № 2492, № 2561, № 2572, № 2743.

2. Toshbosma bayozlar: Bayozi Muhallo. 1912-yilda (1330-hijriy) Toshkentda G.Y.Yakovleva tipografiyasida chop etilgan. Bayoz O‘ZFA toshbosma asarlar fondida №321 inventar raqami bilan saqlanadi. Bayozi Yangi. 1911-yilda (1329 hijriy) Toshkentda G.Y.Yakovleva tipografiyasida chop etilgan. Bayoz O‘ZFA fondida №2080 inventar raqami bilan saqlanadi. Bayozi Haziniy. 1910-yilda (1328 hijriy) Toshkentda G‘.Orifjonov tipografiyasida chop etilgan. Bayoz O‘ZFA fondida №1977-o‘, №406-u, №3924-o‘ inventar raqamlari bilan saqlanadi. Bayozi Haziniy. 1913-yilda (1331-hijriy) Toshkentda G.Y.Yakovleva tipografiyasida chop etilgan. Bayoz O‘ZFA fondida №317 inventar raqami bilan saqlanadi.

Qolaversa, shu davrning eng ko‘zga ko‘ringan “Sho‘ro”, “Tarjumon”, “Sadoi Farg‘ona” kabi gazeta va jurnallarida ham davr shuarosining u yoki bu mavzudagi asarlari nashr etib borilgan.

Ushbu manbalar dissertatsiyamiz mavzusini yoritishda muhim manbalar bo‘lib, Muhyi va unga zamondosh shoirlar asarlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu manbalarni qiyosiy tahlil qilish orqali davr shu‘arosi adabiy merosini yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat poetik janr va mazmun yangilanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu davrda poetik janr va mazmundagi yangilanishlar ijtimoiy-siyosiy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning ta‘sirida adabiy jarayonda sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Qo‘qon

⁸ Muhyiddin Muhyi. Tarix. Tojikcha nasriy asar. O‘zFASHI qo‘lyozma asarlar bo‘limida №604 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxa. Asar 1318/1900 yilda yozilgan va muallif tomonidan shu yilning o‘zida musavvada qilingan. O‘lchami 17x21,5 sm (Asar muallifning musavvadasi (qoralama nusxasi).

⁹ Muhyiddin Muhyi. Majmu‘oti ash‘ori Muhyi. Qo‘lyozma. O‘zFASHI qo‘lyozma asarlar bo‘limida №11126 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxa. 69 varaqdan iborat. O‘zbek va fors-tojik tillaridagi ushbu asar 1305-yilda Qo‘qonda Muhyi tomonidan nasta‘liq xatida ko‘chirilgan. O‘lchami: 11x17 sm.

¹⁰ Muhyiddin Muhyi. G‘azaliyoti Muhyi. Qo‘lyozma. O‘zFASHI qo‘lyozma asarlar bo‘limida №11683 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxa. Asarda shoirning fors-tojikcha g‘azallari kiritilgan bo‘lib, u nasta‘liq xatida yozilgan.

xonligining so‘nggi yillari, Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga bosqini va yangilanish harakatining avj olishi adabiyotda betakror g‘oyalar va shakllarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligi ichki nizolar, taxt uchun kurashlar va iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli zaiflashdi. 1876-yilda Rossiya imperiyasi xonlikni rasman o‘z tarkibiga qo‘shib oldi. Bu jarayon adabiy muhitga ikki xil ta‘sir ko‘rsatdi: bir tomondan, an‘anaviy adabiyotning xon saraylariga bog‘liqligi kamaydi, boshqa tomondan, yangi ijtimoiy voqelikka mos keladigan mavzular adabiyotdan o‘rin oldi. Shoirilar xonlikning yo‘qolishi, xalqning qashshoqlashuvi va rus hukmronligini o‘z ijodida aks ettira boshlashdi. Birgina misol, davrning iste‘dodli shoiri Muhayyir yozadi:

Notavon, miskin Muhayyir, qil Buxoro sori azm,
Ro‘siyo davrinda o‘lguncha qarindosh oldida.

XX asr boshlarida poetik tafakkur yangilanishi Qo‘qon adabiy muhitida muhim omilga aylandi. Ma‘rifat, milliy uyg‘onish va islohot g‘oyalarini targ‘ib qilgan yangilanayotgan adabiyotni xalqni uyg‘otish vositasi sifatida ko‘rdilar. Bu davr ijodkorlari she‘riyatda ijtimoiy-siyosiy mavzularga, millat taqdiriga e‘tibor qaratdilar va adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirdilar.

Rossiya hukmronligi davrida Qo‘qon shahrida savdo, sanoat va madaniy hayotda o‘zgarishlar ro‘y berdi. Yangi ziyolilar qatlami paydo bo‘ldi, bu esa adabiyotda shaxsning ijtimoiy mavqei, ozodlik va adolat kabi mavzularning kuchayishiga olib keldi. She‘riyatda eski saroy lirikasi o‘rniga xalq turmushi va uning muammolari aks etdi.

Dissertatsiyada mavzu mohiyatini chuqurroq anglatish maqsadida Rojiyning “Nechuk jonman” g‘azali tahlil qilinib, poetik janr va mazmun yangilanishining ijtimoiy-siyosiy jihatlari yoritildi:

Nechuk jonman, parishonman, sar to po aybu nuqsonman,
Yomonman, yo‘ldan ozg‘onman, na insonman, na hayvonman.

She‘rda lirik qahramonning ichki olami badiiy san‘at vositalari asosida nihoyatda original tasvirlangan. “Nechuk jonman” g‘azalida Rojiy o‘zining ma‘naviy iztirobini, gunohkorlik hissi va tavbaga intilishni lirik qahramon orqali ochib beradi. She‘rda badiiy san‘at vositalari – tashbih, istiora, mubolag‘a va talmehlar vositasida shoirning ruhiy holati chuqur ifodalangan.

Mazkur g‘azalda Rojiy Marg‘iloniy an‘anaviy shaklni saqlagan holda, uni ijtimoiy-siyosiy tanqid va o‘z-o‘zini muhokama qilish vositasiga aylantiradi. She‘rda badiiy san‘at vositalari – tashbih, istiora, mubolag‘a va ramziylik orqali lirik qahramonning ichki iztirobi, mustamlaka davri zulmiga qarshi tanqid va tavbaga intilish mukammal ifodalangan. Rojiy she‘riyati o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolarini yoritish bilan birga, ma‘naviy yangilanishga chaqiriq sifatida ham ahamiyatga ega. Shu tariqa, uning ijodi o‘zbek adabiyotida mumtoz an‘analar bilan zamonaviylik o‘rtasidagi muhim ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Mazkur mavzu mohiyatini to‘la anglatish uchun fasl davomida Zavqiy, Furqat kabi ijodkorlarning g‘azal va muxammaslari ham sharhlangan, tegishli xulosalar chiqarilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobining ikkinchi fasli – **“Poetik janr va mazmun yangilanishining adabiy-estetik asoslari”** masalalariga bag‘ishlangan. Jamiyatdagi siyosiy inqiloblar, urushlar va taraqqiyot yangi g‘oyalar, yangi obrazlar va janrlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Poetik janr va mazmun yangilanishi doimiy jarayon bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy voqealar, madaniy talablar va ijodkorlarning estetik izlanishlari bilan bog‘liq. Bu jarayonda an‘anaviy va yangi usullar uyg‘unlashib, adabiyotga yangi nafas bag‘ishlaydi. Shuning uchun ham har bir davrda poeziya o‘z taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradi va muxlislar ehtiyojlariga javob beradi.

Xuddi shu ma‘noda Qo‘qon adabiy muhitida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida poetik janr va mazmun yangilanishi o‘zbek adabiyotidagi muhim jarayonlardan biri bo‘ldi. Bu yangilanish Muhyi, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi shoirlar ijodida o‘ziga xos adabiy-estetik asoslarga tayangan holda yuz berdi.

Binobarin, “novatorlikni o‘ylab chiqarib bo‘lmaydi. U eng yaxshi an‘analardan o‘sib chiqishi kerak”¹¹. Xuddi shu ma‘nodagi yangilanish Muhyi va unga zamondosh shoirlar ijodida o‘ziga xos adabiy-estetik asoslarga tayangan holda yuz berdi. Ushbu jarayonning asosiy jihatlari dissertatsiyada quyidagicha tadrijiylikda o‘rganilgan:

1. Adabiy an‘analar bilan uzviy bog‘liqlik.
2. Yangilanish g‘oyalarining ta‘siri.
3. Til va uslub yangiligi.
4. Estetik ideallarning o‘zgarishi.

Dissertatsiyaning mazkur faslida Muhyi, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va Rojij Marg‘iloniy kabi shoirlar ijodini tahlil qilish orqali ushbu davr adabiyotining estetik asoslari aniqlangan. Bu shoirlar she‘rlarida ta‘lim-tarbiya va ma‘naviy yuksalish g‘oyalari ko‘tarildi. Ular she‘riyatni xalqni uyg‘otish vositasi sifatida ko‘rdilar. Muhyi mustahkam e‘tiqod sohibi sifatida xalqni ma‘rifatlantira oladigan she‘rlar ijod qildi. Furqat o‘z asarlarida jamiyatdagi noadolatlik, qoloqlikni qoraladi va ezgulikka yo‘l ochuvchi islohotlarning zarurligini qat‘iy ta‘kidladi. Uning ko‘pgina she‘rlarida estetik zavq bilan ijtimoiy mazmun uyg‘unlashgan. Zavqiy va boshqa shoirlar o‘zbek xalqining o‘zligini anglash va uni rivojlantirish g‘oyalarini ilgari surdilar.

Fursat g‘animat, ahhob, millatga ko‘z ochaylik!
Sa‘y ila jonu dilda himmatga ko‘z ochaylik!
Dinu diyonat istab, g‘ayratg‘a ko‘z ochaylik!
Haq amri farz birla sunnatg‘a ko‘z ochaylik!
Umr o‘tti g‘aflat ila, ibratga ko‘z ochaylik!¹²

Zavqiyning ushbu muxammasi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi yangilanish g‘oyalarining adabiy ifodasi sifatida o‘z davridagi ijtimoiy-ma‘naviy muammolarga javob beradigan va xalqni uyg‘onishga undaydigan muhim asardir. Ushbu she‘rda shoir o‘zbek xalqini g‘aflatdan uyg‘onishga, ma‘rifat va islohotlar yo‘liga qadam qo‘yishga, din va millat uchun faol harakat qilishga da‘vat etadi. Bu

¹¹ Норматов У. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. – Т.: Мумтоз сўз, 2008. – Б.16.

¹² Норматов У. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. – Т.: Мумтоз сўз, 2008. – Б. 60.

g‘azal yangilanish harakatining asosiy maqsadlari – ta’lim, ma’naviy yuksalish, ijtimoiy adolat va milliy o‘zlikni anglatish g‘oyalarini o‘zida mujassam qilgan.

Murakkab aruz vazni saqlangan bo‘lsa-da, Muhyi va Furqat asarlarida tilni soddalashtirish va fikrni ochiq ifodalashga intilish kuzatildi. Masalan, Muhyining:

Ey dilbari tundxo‘yi bedod,

Rangi gulu qaddi sarvi shamshod¹³ bayti bilan boshlanuvchi g‘azalida bu holat yaqqol namoyon bo‘lgandek, nazarimizda. Shoirning ijodida klassik she‘riyat an‘analari bilan birga o‘z davriga xos til va uslubiy yangilik elementlari ham ko‘zga tashlanadi. “Ey dilbari tundxo‘yi bedod” deb boshlanadigan ushbu g‘azalda Muhyi o‘z lirik qahramoni orqali ishq, ma‘shuqa vasfi va oshiqlik iztirobini badiiy talqin qiladi.

Sandin kima man shikoyat aylay,

Javru sitamingga dodu bedod – misralarida “kima man shikoyat aylay” iborasi xalq tiliga xos sodda so‘z tuzilishi va ifodasi bilan ajralib turadi. Bu mumtoz g‘azallarda ko‘p uchraydigan og‘ir fors-tojik va arabcha terminologiya va murakkab grammatik konstruksiyalardan voz kechishni ko‘rsatadi. Shoir bu vosita bilan o‘quvchiga yaqinroq bo‘lishga va lirik qahramonning his-tuyg‘ularini ochiqroq ifodalashga intilgan.

Qo‘qon adabiy muhitida faoliyat ko‘rsatgan Muhyi va unga zamondosh shoirlar, jumladan, Rojiiy Marg‘iloniy, Muhyi, Furqat va boshqa ijodkorlar uchun estetik ideal faqat tashqi go‘zallikni tasvirlash bilan cheklanib qolmadi. Ular she‘riyatdagi go‘zallikni ma‘no teranligi, ijtimoiy ahamiyat va inson ruhiyatining ko‘p qirrali tahlili bilan o‘lchay boshladilar.

Shoirlar uchun go‘zallik faqat tabiat yoki ma‘shuqa jamolini vasf qilish emas, balki jamiyatdagi nosog‘lom munosabatlarni fosh etish va ularga munosabat bildirish vositasiga aylandi. Bu estetik ideallarning ijtimoiy ahamiyat bilan boyiganini ko‘rsatadi.

Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari an‘anaviy she‘riyatda ustun bo‘lgan tashqi go‘zallik vasfidan uzoqlashib, she‘rda ma‘naviy va falsafiy teranlikka intilishni estetik ideal sifatida ko‘ra boshladilar. Masalan, Rojiiyning “Nechuk jonman” g‘azalida lirik qahramonning o‘z gunohlari ustidan muhokamasi va tavbaga intilishi klassik ishq mavzusidan kengroq ma‘noga ega. Shuningdek, Muhyi she‘ridagi “Olam hama sandin aylagay dod” misrasidagi umumlashtiruv faqat oshiqlik iztirobini emas, balki umuminsoniy muammolarni ko‘tarishga xizmat qiladi. Bu estetik idealda go‘zallikning faqat shakliy emas, balki mazmuniy jihatdan mukammal bo‘lishiga urg‘u berilganini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Muhyi va uning adabiy davrasi namoyandalari ijodida poetik obraz yangilanishi tamoyillari”** deb ataladi. Bob ikkita asosiy fasldan tarkib topgan. Bobning birinchi fasli **“Oshiqona obrazlar yangilanishi tamoyillari”** mavzusida yozilgan.

Muhyi va uning zamondoshlari ijodi mumtoz adabiyotimizning ushbu qonuniyatlari, badiiy tizim an‘analarini qamrab olgan, o‘z qarashlari va iste‘dodi

¹³ Muhyiddin Muhyi. Devoni Muhyi. – Toshkent: Hoji Abdurrauf nashri, 1911/m. O‘zFASHI fondida №3220 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxa, 360 sahifa. – B.257.

darajasida uni qayta jonlantirgan ijoddir. Birgina Muhyining turkiy va forsiy devonlariga 8 janrga oid asarlar kiritilgan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ushbu devonlarda aks etgan asarlar shoirning arab, fors-tojik va turkiy she'riyat tajribalaridan shunchaki foydalanib yozilgan emas. Bu asarlarda keskin o'zgarayotgan ijtimoiy makonning yangi talablari: she'riy obrazlar hissiy-emotsional yukini orttirish, mavzuning tezkor talqini va yengil qabul qilinishi uchun ohangdor illyustratsiyalar kiritilgan va boshqa zamonaviy poetik tasvir vositalari mahorat bilan qo'llanilgan.

G'uncha og'zin qilsa nisbat nogahon yor oldida,
Ey sabo, yorim uchun og'zini ur-yor oldida¹⁴.

Ushbu matla (g'azalning dastlabki bayti) shoir iste'dodining nafis qirralarini ochib beradi. Sharq she'riyatida ma'shuqa timsolini tasvirlashda g'uncha (lab), gul (yuz), quyosh va oy kabi an'anaviy tashbihlar keng tarqalgan bo'lsa-da, Muhyi bu an'analar bilan cheklanib qolmaydi. U mushabbihun bih (tashbih asosi) san'atidan foydalanib, yorning jamolini tasvirlashda originallikka erishadi. Matlada raddiya usuli orqali g'unchaga yorning labiga o'xshashlik da'vosi uchun "sabo"dan jazo so'raladi – "og'zini ur-yor oldida" jumlasini buning poetik ifodasidir. Bu yerda tajnis (yor – ma'shuqa, yor – yormoq), tashxis (g'uncha va saboga jonli sifat berish) va apostrofa¹⁵ (saboga murojaat) san'atlaridan mohirona foydalanilgan.

Muhyi ijodida oshiqona obrazlarning yangilanishi o'zbek mumtoz she'riyati an'alarini davom ettirish bilan birga, o'z davriga xos estetik va ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotimiz davomida Muhyining "Ila bahs" radifli g'azali va boshqa she'rlari misolida oshiqona obrazlarning qay tariqa yangilanishga erishgani, ularning poetik tasvirdagi o'ziga xosligi va mazmun jihatidan boyishi kabi masalalar o'rganildi.

Furqatning quyidagi g'azalida esa qora ko'z va qora qosh, qora zulf vasfi mavjud:

Qoshlari ostida go'yo ikki fatton ko'zlar,
Ikki hindu bachchadurkim, yondashib yo tortadur...¹⁶

Baytda ma'shuqaning qop-qora ko'zlari hindu bolalariga o'xshatiladi, qoshlar esa qop-qora hind bolalarning yonma-yon turib yoy tortayotganiga qiyoslangan.

Charxi kajraftorning bir shevasidin dog'men,
Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur.

Mazkur baytda shoir an'anaviy sevgi ifodasi doirasida o'z davrining ijtimoiy tengsizligi muammolarini tasvirlaydi. Xuddi shu nuqta davr shuarosining oshiqona obrazlar talqinidagi yangicha yondashuv tamoyillarini namoyon etgan. Boshqacha aytganda, an'anaviy oshiqona g'azallar zamirida davrning mavjud ijtimoiy muammolarini singdirib yuborish hodisasi ko'zga tashlanadi.

Muhyi, Furqat, Muhayyir va Zoriy kabi shoirlar ijodida oshiqona obrazlarning yangilanishi o'zbek mumtoz she'riyati an'alarining mustahkam zaminida o'z

¹⁴ Muhyiddin Muhyi. Devoni Muhyi. – Toshkent: Hoji Abdurrauf nashri, 1911/m. O'zFASHI fondida №3220 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxa, 360 sahifa. – B.236.

¹⁵ Yunon. apostrophe – og'ish. Jonlantirishning bir turi.

¹⁶ Зокиржон Фуқат. Фасли навбахор ўлди [Матн]. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳлар муаллифи ва масъул муҳаррир: Нурбой Жабборов. – Тошкент: Адабиёт, 2023. – 128 бет. – Б. 32.

davriga xos estetik, ijtimoiy va falsafiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi muhim adabiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu shoirlar mumtoz she'riyatda ustun bo'lgan g'azal, qit'a, fard kabi janrlarni o'zlashtirib, ularni yangi mazmun, poetik tasvir vositalari va individual uslub bilan boyitganlar.

Shuningdek, dissertatsiyada Muhyi va unga zamondosh shoirlar ijodida oshiqona obrazlarning yangilanishi an'anaviy obrazlarning transformatsiyasi va dinamikasi, emotsional chuqurlik va psixologik ziddiyatlar, ijtimoiy va falsafiy ohang, badiiy san'atlarning yangi talqini va janrlar doirasidagi yangilik kabi bir necha asosiy tamoyillar asosida yuz bergani isbotlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi, ikkinchi fasli – “Irfoniy obrazlar yaratishda an'anaviylik va yangilanish” mavzusida yozilgan. Tadqiqotning bu fasli XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Qo'qon adabiy muhitida, xususan, Muhyi, Qoriy, Furqat, Muhayyir, Xaziniy kabi shoirlar ijodidagi irfoniy obrazlarning shakllanishi, an'anaviylik va yangilanish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilishga bag'ishlangan. Shuningdek, faslda irfoniy obrazlarning o'z davri falsafiy-badiiy tafakkuri va ijtimoiy muammolari bilan uyg'unlashgani tahlil qilingan.

Muhyining “Ey charxi suflaparvar...” g'azalida “charx” an'anaviy ramz sifatida ishlatilsa-da, Qo'qon xonligining inqirozi va madaniy ekspansiyaga¹⁷ qarshi norozilik yuklatilgani ko'rsatilgan. Furqatning “Bas, barobardur ani dargohida shohu gado” satrida Ilohiy adolat g'oyasi ijtimoiy tenglik masalalariga ishora sifatida talqin qilinib, o'z davri muammolariga nozik bog'lanishni vujudga keltirgan. Muhayyirning “Qachonkim shohimiz...” muxammasida davr voqeliklariga munosabat, Qoriyning “Ahvoli zamona” muxammasida axloqiy buzilish va adolatsizlikka qarshi tanqid, Xaziniyning “Nasoro bizga podshohlik qilib...” satrlarida diniy-ma'naviy tanazzulga qarshi dardli ohang irfoniy obrazlarning ijtimoiy kontekstda yangi ma'no kasb etganini isbotlaydi. Ushbu tahlillar shoirlarning an'anaviy ramzlarga o'z shaxsiy iztiroblari, falsafiy qarashlari va ijtimoiy mulohazalarini singdirganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davr shoirlari mumtoz badiiy san'atlarni (tashbih, istiora, tazod, talmeh, husni ta'lil) o'z uslublarida qayta talqin qilganlar. Muhyining:

Ойна об гашта зи ҳайрат, ки рӯи ту,
Бошад барӣ зи тӯҳмати аксу мисолҳо.

Tarjimasi: Sening yuzing aksu misollar tuhmatidan pokdir. Oyina (Sening aksu misolingni ko'rsata olmagani uchun) hayratdan suvga aylandi.

Bu baytda “oyina” obrazi – inson qalbi yoki aqli ramzi sifatida an'anaviy tasavvufiy she'riyatdan olingan. Biroq Muhyi uni “suvga aylanishi” orqali yangi badiiy ko'rinishga keltiradi, bu esa ojizlik va hayratning eng yuqori nuqtasini ifodalaydi. Allohning bemislligi va uni aks ettirib bo'lmasligi g'oyasi bu yerda an'anaviy “tanzih” tushunchasini yangi poetik talqin bilan kuchaytiradi.

¹⁷ Lotincha – kengaytirish, yoyish. Yangi hududlarni, boshqa mamlakatlardagi bozorlarni egallash, ta'sir doirasini kengaytirish yo'lidagi harakat. Ekspansiyaning hududiy, iqtisodiy, siyosiy ko'rinishlari bo'ladi.

Muhyi ijodida irfoniy obrazlar yaratishda an'anaviylik va yangilanish o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'lgan. Ishq, charx, xilvat kabi irfoniy istilohlar an'anaviy ramzlardan kelib chiqib, shoirning individual tajribasi, ichki iztiroblari va jamiyatga munosabati orqali yangi ma'no va shaklga ega bo'lgan. Bu jarayon o'zbek she'riyatida irfoniy an'analarning boyishi va yangilanishida muhim bosqich bo'lib xizmat qildi. Muhyining ijodi nafaqat estetik zavq uyg'otish, balki inson ruhiyatini, ilohiy muhabbat falsafasini va ijtimoiy muammolarni chuqur talqin qilish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga egadir.

Umuman olganda, XIX asrning II yarmi va XX asr boshida o'zbek adabiyotida diniy-ma'rifiy yo'nalishda asarlar yaratgan shoirlar ijodi keng rivojlandi. Bu davrda Muhyiddin Muhyi, Xolis Toshkandiy, Azimxo'ja, Yusuf Saryomiy Qoriy Xo'qandiy va Haziniy Ho'qandiy kabi shoirlar o'z asarlarida an'anaviy irfoniy motivlarga tayanib, o'tmish orif shoirlaridan meros qolgan "Qur'on" va "Hadis"lardagi g'oyalarni falsafiy-axloqiy talqin qilish orqali ma'rifat yo'liga yo'llovchi asarlar yaratdilar. Ushbu shoirlar ijodida diniy-irfoniy nuqtayi nazar asosiy o'rin tutsa-da, ular o'z davrining ijtimoiy-madaniy muammolariga ham befarq qaramadilar. Dissertatsiyada nomlari zikr etilgan shoirlar asarlaridan keltirilgan namunalarni sharhlash orqali o'zbek she'riyatida tasavvufiy an'alar bilan zamonaviylik o'rtasidagi muvofiqlik ko'rsatilib, Qo'qon adabiy muhitining ma'naviy-falsafiy jarayonlardagi roliga aniqlik kiritilgan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **"Qo'qon adabiy muhitida tarix va zamon haqiqatlarining ilmiy va badiiy talqini qonuniyatlari"** deb nomlangan. Bobning birinchi fasli **"Tarixi Muhyi Xo'qandiy" da tarixiy voqelik ifodasining o'ziga xosligi** mavzusida yozilgan bo'lib, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Qo'qon xonligi tarixini, xususan, Muhyiddin Xo'qandiyning "Tarixi Muhyi Xo'qandiy" asari asosida tarixiy voqelikning ilmiy va badiiy talqinini o'rganishga bag'ishlangan.

O'rganilayotgan davr Qo'qon tarixiga bag'ishlangan asarlar, dissertatsiyada ko'rsatib o'tganimizdek, qirqdan ziyod. Bular qatorida Umidiy-Havoiiy ham bor. Uning "Tarixchayi Turoniy" asarida shu davr tarixini yoritgan ayrim tarixnavislar qatori Muhyiddin Xo'qandiy ham tilga olingan. Bundan ko'rinadiki, Muhyi ham o'z davrida Qo'qon tarixini tarix zarvaraqlariga muhirlagan muarrixlar qatoridan joy olgan shoirlardan biri hisoblanadi. Muhyining "Tarix" asari tojik tilida, nasrda yozilgan. U hozirda O'ZFASHI qo'lyozma asarlar bo'limida №604 inventar raqami bilan saqlanadi. Asar 1318/1900-yilda yozilgan. O'lchami 17x21,5 sm. Asar XIX asr Qo'qon adabiy muhitini o'rganishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Unda dastlab odam alayhissalomning tarixlaridan boshlab, alal oqibat Qo'qonning Muhyi yashagan davri tarixigacha bayon qilingan. Shuningdek, asarda Afg'oniston, Hindiston, Eron, Turkiya podsholarining qisqacha tarixi ham berilgan. Asarda an'anaviy muqaddima va xotima berilmagan. Asar sodda til va ravon uslubda yozilgan.

Bizning ilmiy mavzumiz uchun eng muhim qism asarning to'rtinchi bobi hisoblanadi. Bu bob asarning eng salmoqli qismini tashkil etgan. U qo'lyozmaning 14a sahifasidan toki 38a sahifasigacha davom etgan. Bob asar qo'lyozmasida "Dar

bayoni nasli xononi Xo‘qandi latif” (Xo‘qandi latif xonlarining nasli bayoni) tarzida nomlangan va unda Qo‘qon xonlarining tarixi yoritilgan.

Bizgacha bu asarga murojaat qilgan olimlar uning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi nihoyatda dolzarb ish ekanini ta’kidlashgan. Shu munosabat bilan biz Muhyining mazkur qo‘lyozmasi tarjimasini amalga oshirdik.

Tarixdan ma’lumki, Xudoyorxonidan so‘ng taxtni egallagan valiahd shahzoda Nasriddinxonni soxta Po‘latxon yenggan va u Mahram qal’asida jon saqlashga majbur bo‘lganda shogirdining tang ahvolda ekanini eshitgan Muhyi darhol Nasriddinxon huzuriga boradi va uni saroydagi obro‘li kishilar bilan aloqa o‘rnatishga hamda 1876-yil yanvar oyida Qo‘qonga taklif etib, taxtni qayta egallashiga ko‘maklashadi.

Muhyi qayta taxtni egallagan Nasriddinxon va Skoblev suhbatini “Tarixi Muhyi Xo‘qandiy”da quyidagicha batafsil, eng mayda detallarigacha mahorat bilan badiiy tasvirlagan. E’tiborli jihati shuki, o‘quvchi Muhyi tarixini o‘qirgan undagi qahramonlar ruhiyatini his etib turadi:

“...Mazkur xon bu voqeadan hayratlanib, maslahat uchun, Mirolimxonni chaqiradi. Mirolimxon taklifga binoan fотиha o‘qib, Nasriddinxonni xonlik mansabiga o‘tqizadilar. Mazkur xonni to‘hfayu tortiqlar va bir qancha amaldorlar bilan Skoblev huzuriga olib chiqadilar. Skoblev xondan g‘azablanib, unga yomon muomalada bo‘lib:

– Kim sizlarga farmon berdiki, Qo‘qonni tasarruf qilibsizlar?, – deydi. Xon javob beradi:

– Bizga general gubernator Fon-Kaufman izn berib aytdikim, qachonki qo‘l kelsa kelib o‘z mulklaringga egalik qilinglar. Yana uning o‘zi bizni bu xonlik masnadiga tayinlab ketdi.

Skoblev aytdiki:

– Unday bo‘lsa nega mulkingizni tashlab ketdingiz?

Xon:

Xalq, fuqarolar, siz va hatto butun Farg‘ona ahli menga dushman bo‘lib, meni ketishim uchun qasdlashdilar. Shunga binoan chiqib ketdim. Shundan so‘ng Skoblev aytdi:

Ma’lum bo‘lishicha, Farg‘ona ahli sizni qabul qilmas ekan. Behudaga o‘zlarinigizni zahmatga qo‘ymoqdasizlar. Yana boshqa jihati shundaki, Qo‘qon aholisining barchasi bizga barmoq muhrlarini qo‘yib, ariza berdilarkim, “biz Xudoyorxon va uning avlodidan bezordirmiz”, – deb.

Skoblev “Jonu dil bilan Oq podshoga tobe bo‘ldik”, – deb yozilgan arizalarini mazkur xonga ko‘rsatar ekan, chorasiz qolgan xonga og‘iz ochishga boshqa imkon qolmadi. Mulozimlariga javob berib, xonning o‘zini shu yerda qoldiradi. Tevarak-atrofini o‘z soldatlari bilan qurshab qo‘yadi”¹⁸.

“Tarixi Muhyi Xo‘qandiy” asarida tarixiy voqealar nafaqat xronologik tartibda, balki badiiy va ta’sirchan uslubda bayon qilingan. Asarning to‘rtinchi bobida Qo‘qon xonlarining tarixi, siyosiy jarayonlar va davlat boshqaruvidagi

¹⁸ Tarjima o‘zimizniki – M.A. (O‘zFASHI qo‘lyozma asarlar bo‘limida №604 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxa. –23b – 24a betlar).

o'zgarishlar batafsil yoritilgan. Muhyining Xudoyorxon va uning avlodlariga xos samimiy munosabati, Nasriddinxon va Skobelev o'rtasidagi munosabatlarning psixologik detallar bilan tasvirlanishi asarning badiiy qimmatini oshiradi. Dissertatsiyada Nasriddinxonning Mahramdagi ahvoli, Abdullohbekning qochishi, Skobelevning Qo'qonni egallashi kabi voqealar nafaqat tarixiy fakt sifatida, balki tarix va zamon haqiqatlarining ilmiy va badiiy talqini qonuniyatlari asosida talqin qilindi.

Xulosa shuki, asar nafaqat Qo'qon xonligi tarixi, balki uning ijtimoiy-madaniy hayoti, milliy uyg'onish g'oyalari va adabiy muhitini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobining ikkinchi fasli **“Muhyi va uning zamondoshlari “Sayohatnoma”larida davr ijtimoiy muhiti tasviridagi ijodiy individuallik”** mavzusi tadqiqiga bag'ishlangan. Tadqiqotda o'zbek adabiyoti va tarixshunosligida sayohatnoma janrining rivoji, uning tarixiy-badiiy xususiyatlari va ijodiy individuallikning namoyon bo'lish yo'llari o'rganildi.

Tadqiqot avvalida Ibn Battuta, Ibn Xurdodbeh, al-Muqaddasiy, al-Mas'udiy kabi o'rta asr sayyohlari va geograflarining asarlari misolida janrning tarixiy ildizlari va madaniy ahamiyati yoritildi. Shuningdek, Jonmuhammad Joniy, Mirzo Buxoriy, Toshmuhammad Isomuhamedov, Muqimiy, Muhyi, Furqat, Zavqiy va Tajalliy kabi XIX asr ijodkorlarining sayohatnomalari tahlil qilindi.

Muqimiy “Sayohatnoma”sining yana bir xarakterli jihati shuki, unda ko'proq “hasbi hol” ko'zga tashlanadi. Mumtoz adabiyotimizdagi “hasbi hol”larda asosan shoirlar o'z ahvollari haqida yozishgan. Bularning ayrim ko'rinishlari boshqa xil she'rlarda ham mavjud. “Sayohatnoma”da Muqimiy “garduni dun” (“pastkash dunyo”)dan faryod qiladi, yurakbag'rini “qon” (“xun”) qilganidan shikoyat etadi. “Ahli funun” (“ilm-fan kishilari”)ga bu dunyoning hamisha teskari (“kajraftor”) yurganini ta'kidlaydi.

Muqimiydan farqli o'laroq Nodimning Samarqand va Toshkentga, Muhyining Rishton va Marg'ilonga qilgan safarlari natijasida yuzaga kelgan Sayohatnomalari qasida shaklida yozilgan. Ta'kid lozimki, Muhyining fors-tojik tilida yozilgan devonidagi qasidalar fardlardan so'ng joylashtirilgan. Birinchi qasida Mullo Yo'ldosh To'raboy o'g'li Xilvatiyga bag'ishlangan. Ikkinchisi esa Marg'ilon va Roshidon shaharlarining ta'rifu tavsifidan iborat.

Muhyi qasida avvalida: “qasidai navinaki dar rohi Marg'inon dar tariqi Roshidon gufta shuda” (tarjimasi: bu yangi qasida Marg'inondan Roshidonga borish yo'lida aytili), deya sarlavha qo'yadi.

Bir qarashda bu bitiklar mazmunan o'quvchiga Muqimiy sayohatnomalarini eslatadi. Biroq Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Tajalliylardan farqli o'laroq Muhyi “sayohatnoma”si qasida ko'rinishida, qolaversa, yuqoridagi shoirlarda bo'lgani kabi “ekan” radifi ko'zga tashlanmaydi. Vazn ham boshqacha (ramali musammani maqsur).

Muhyi “Sayohatnoma”ni fors-tojik tilida yozdi. Umuman, Muhyining mazkur “Sayohatnoma”si fors-tojik tilida yozilgan dastlabki asar emas. Avval ta'kidlaganimizdek, XIX asrda Buxoro adabiy muhitida ham fors-tojik tilida

sayohatnomalar bitilgan. Muhyida Muqimiydan farqli o'laroq quyidagi ikki yo'nalish mavjud:

1. Ta'rifi Rishton.
2. Vasfi Marg'inon.

Bu ikki yo'nalishda ham tabiat tasviri, tarixiy va ijtimoiy manzaralar, inson va jamiyat munosabatlari o'ziga xos poetik usullarda tasvirlangan. Shoir qasidada bu haqda shunday yozadi:

Буд маҷмуи ҳамин абёт аз яксад фузун,
Нисфи он таърифи Риштон, нисфи васфи Марғинон¹⁹.

Demak, shoirning xabar berishicha, ushbu qasida 100 baytdan ziyod bo'lgan. Uning yarmi Roshidon, yarmi esa Marg'ilon ta'rifida bitilgan. Bu ikki shahar tabiati va ijtimoiy hayotining tasviri shoir uslubida keng qamrovli va badiiy ravishda bayon etilgan. Shoirning tabiatga bo'lgan munosabati, uning go'zallikni teran his qilishi "Sayohatnoma"da yaqqol ko'zga tashlanadi.

Muhyi asarlarida tabiat go'zalligi, insonlarning mehmonnavozligi va madaniy muhitning nafosatiga alohida urg'u berilgan. Uning:

Субҳи чумъа матлаи субҳи саодатро нишон,
Гаштам аз дарвоза берун раҳ ба суйи Рошидон²⁰.

Tarjimasi: subhi juma – sa'odatning to'lishgan tongidan nishon. (Shu kunda, ya'ni juma kunida) men darvozadan tashqariga chiqdim va Roshidon tomon yo'l tortdim²¹ – kabi baytlari sayohatni ma'naviy va estetik kechinma sifatida tasvirlashdagi poetik mahoratini ko'rsatadi. Uning Roshidon va Marg'ilon tabiatini jannatga qiyoslashi, bulbullar, daraxtlar va ariqlarni batafsil tasvirlashi asarning lirik va nafis uslubini namoyon qilgan. Muhyining "O'ltarmadagi samovarlar" va "dildor bilan uchrashuv" kabi tasvirlari esa oshiqona motivlar va ruhiy zavqning uyg'unligini aks ettiradi. Faslda Muhyining chet el (Afg'oniston, Hindiston, Turkiya) safarlarida yozilgan asarlari, xususan, Lohur va Istanbul tasvirlariga bag'ishlangan qit'alari ham tahlil qilinib, tegishli xulosalarga kelindi.

Sayohatnomalar muallifning safar hisoboti yoki tor shaxsiy kechinmalar majmuidangina iborat emas. Ularda davr ijtimoiy hayotining bir qancha muammolari (Muqimiyda) tanqidiy nazar bilan tahlil etilgan.

Sayohatnomalar, ta'kidlaganimizdek, nasrda va nazmda yozilishi mumkin. Nazmiy sayohatnomalar hamisha Muqimiy "sayohatnoma"si kabi to'rtliklardan iborat bo'lavermaydi. Bilaks, dissertatsiyamizning mazkur fasli avvalida ta'kidlaganimizdek, ular qasida shaklida ham yozilishi mumkin. Bu kabi sayohatnomalarda ko'proq ta'rif-u tavsif yetakchilik qiladi. Nazmiy sayohatnomalar nasriy sayohatnomalar kabi batafsillikka da'vo qila olmaydi. Ularda ko'pincha umumlashgan tasvirlar ifodasi ustunlik qiladi.

¹⁹ Muhyiddin Muhyi. Devoni Muhyi. – Toshkent: Hoji Abdurrauf nashri, 1911/m. (O'zFASHI ning toshbosma asarlar fondida №3220 inventar raqami bilan saqlanmoqda), 360 sahifa. O'zbekcha-tojikcha, o'zbekcha qismi 231-sahifadan boshlanadi. – B. 211.

²⁰ Muhyiddin Muhyi. Devoni Muhyi. – Toshkent: Hoji Abdurrauf nashri, 1911/m. (O'zFASHI ning toshbosma asarlar fondida №3220 inventar raqami bilan saqlanmoqda), 360 sahifa. O'zbekcha-tojikcha, o'zbekcha qismi 231-sahifadan boshlanadi. – B. 208.

²¹ Tarjimalar o'zimizniki – M.A.

Dissertatsiya so‘ngi bobining uchinchi fasli **“Tarix va zamon haqiqatlarining she‘riyatdagi talqini”** mavzusida bo‘lib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari ijodida tarixiy voqealar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va zamon ruhining poetik ifodasini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Tadqiqotda tarix va adabiyot o‘rtasidagi dialektik munosabatga asoslanib, she‘riyatning nafaqat badiiy, balki tarixiy-ijtimoiy voqelikni aks ettiruvchi muhim manba sifatidagi roli yoritildi. Qo‘qon adabiy muhitining yetakchi shoirlari – Muhyi, Muqimiy, Qoriy Xo‘qandiy, Muhsiniy, Rojiy kabi shoirlarning asarlari tahlil qilindi. Ularning ijodi XIX asr oxirida Turkistonda yuz bergan siyosiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar, milliy uyg‘onish harakati va chor Rossiya mustamlakachilik siyosatiga qarshi ma‘naviy kurashning poetik ifodasi sifatida o‘rganildi.

Qo‘qon tarixi zarvaraqlaridan o‘ziga munosib joy egallagan ijobiy va salbiy voqealar mazkur adabiy muhit ijodkorlari asarlarining bosh mavzusiga aylangani ayni haqiqat. Qo‘qon adabiy muhiti vakillari e‘tiborini o‘ziga jalb etgan tarixiy voqealardan biri Andijon zilzilasidir. Turkiston tarixidagi eng mash‘um zilzilalardan biri 1902-yilning 16-dekabr kuni Andijon shahrida yuz bergani tarixdan bizga ma‘lum.

Andijonga alohida muhabbat qo‘ygan Muhyiga bu voqea juda qattiq ta‘sir qildi. Zamonasining ko‘pgina shoirlari qatori u ham mazkur voqeaga nisbatan o‘z munosabatini izhor etdi. Shoir Andijon zilzilasiga bag‘ishlab o‘zining quyidagi muxammasini yozdi:

Ta‘n aylamang, azizlar, zinhor Andijona,
Haq amri birla bo‘lg‘on hamvor Andijona,
Qilgan ekan muqaddar Jabbor Andijona,
Doim duoi hayrat darkor Andijona,
San aylama malomat bekor Andijona.

Shoirning ushbu 19 banddan iborat muxammas-ta‘rixi “Turkiston viloyatining gazetisi” sahifalarida “Xo‘qandlik shoiri nomdor, sohibi iqtidor Mavlono Hoji Muhyi afandining Andijon shahri xususida dilso‘zona abyotlari” sarlavhasi ostida chop etilgan²².

Muxammas Andijon ahli boshiga tushgan kulfatlarga shoirning hamdardligi izhori tariqasida bitilgan. Unda andijonliklar sabru toqatga, doimo Haq yodi bilan yashashga da‘vat etilgan.

Dissertatsiyada mazkur munosabat bilan Muqimiy tomonidan yozilgan marsiya ham Muhyi muxammasi muqobalasida qiyosiy tahlil qilindi va asosli xulosalar chiqarildi.

XIX asr oxirlarida sodir bo‘lgan mashhur Viktor Dmitrovich Axmatov voqeasi ham Qo‘qon adabiy muhiti shuarosining e‘tiborlaridan chetda qolmadi. Tadqiqot davomida Muhyining 1891-yilda ro‘y bergan “Vektor voqeasi”ga bag‘ishlangan “Dar mazammati Bektur” nomli hajviy muxammasi badiiy jihatdan sharhlandi:

²² Юсупов Ш. Мухйи Хўқандий // Шарк юлдузи. – Тошкент, 2002. № 1. – Б. 111-119.

Bermay zakoti shar'iy, haj qilmag'on guruha,
Dunyo deb oxiratni yod etmagan guruha,
Arbobi fazl qadrin hech bilmagan guruha,
Rusiydin o'zga elga bosh inmagan guruha,
Javr ayla – berma pulni imkoni bor Bektur.

Shoir fikricha, haqiqiy aybdor pulni aldov yo'li bilan o'zlashtirib, mol egalarini chuv tushirib o'z yurtiga qochib ketgan Viktor emas, bilaks yeb to'ymas boylardir. Firibgarning bu ishi esa ayni muddao.

Bu mashhur va mash'um voqea Qoriy va Muqimiylarning ham diqqat e'tiborlaridan chetda qolgan emas. Muqimiy Vektorga bag'ishlab ikki muxammas va bir masnaviy bitgan. Muxammasda Muqimiy Viktor obrazini "epchil hiylagar" va "chaqqon tovlamachi" sifatida tasvirlaydi. Muxammas davomida uning tengsiz firibgarligi bundan-da kuchliroq tashbihlar orqali "tavsif"langan.

Qoriy esa Viktor (Bektur) voqeasiga bag'ishlab 72 band (360 misra)dan iborat muxammas yozgan²³. Qoriy ham zamondosh ijodkorlar singari Vektorga va ham mahalliy boylarga bo'lgan nafratini badiiy puxta misralar orqali ochiq oydin namoyon etadi.

Guvoh bo'lganimizdek, XIX asr oxirlarida sodir bo'lgan Viktor Dmitrovich Axmatov voqeasi o'z davrida mashhur tarixiy voqea sifatida Qo'qon tarixi zarvaraqlaridan o'ziga munosib joy egalladi. O'z navbatida bu voqea Muhyi, Qoriy, Muqimiy kabi zabardast shoirlar ijodidagi dolzarb mavzuga aylandi. Mazkur shoirlarning barchalari ham bu mavzu doirasida deyarli hamfikir bo'lsalarda, ijod namunalari o'zlariga xos badiiy jihatdan individual yoritishga muvaffaq bo'ldilar.

Shuningdek, tadqiqotning bu faslida tarixiy vaqea-hodisalar bilan bir qatorda tarixiy shaxslar haqida yozilgan g'azallar ham tahlil doirasiga tortilgan. Xususan, Muqimiy va Muhyi ijodlarini solishtirib ko'rsak, ikkala shoirning bir-biriga ergashib yozgan ancha-muncha hajviy she'rlari borligiga amin bo'lamiz. Masalan, Muhyining turkiy devonida "Asrorqul" radifli hajviy g'azal mavjud bo'lib, u aruzning ramali musammani maqsur vaznida bitilgan. Xuddi shu radif, shu vaznda bitilgan g'azal Muqimiyda ham mavjud.

G'azallarda Asrorqul odamiylik xususiyatlaridan yiroq bo'lgan, atrofda qilarga ozor beradigan, befarosat, xudbin bir kimsa sifatida hajv etilgan.

Muhyi ham, Muqimiy ham hajviy g'azal maqtasini deyarli bir xil mazmunda quyidagicha baytlar bilan yakunlaganlar:

Muqimiy: Pand erur sanga – Muqimiy – ushbu so'z hajv aylasam,
Bosh olib ketsang kerak bu shahrdin, Asrorqul.²⁴

Muhyi: Muhyi tanbeh ayladi hajv etmadi, gar etsa hajv,
San qocharsan aylabon tarki vatan, Asrorqul.²⁵

²³ Mazkur muxammas ayrim manbalarda Pisandiyga nisbat berilgan. Biroq u Qoriy qalamiga mansub. Bu haqda qarang: Мадаминов А. Бектурга пул бериб, жониға ўт тушгони (Қорий мухаммаси) // Соғлом авлод учун. – Тошкент, 2003 йил, №10. – Б. 43.

²⁴ Муқимий. Асарлар тўплами. Икки томлик, 2-том, – Тошкент: Ўзбекистон бадий адабиёт, 1960. – 194 б. – Б. 51.

Shoirlar maqtada ta'kidlanganidek, Asrorqulning barcha kirdikorlarini hajv etmadilar, balki unga pandu (Muqimiy) tanbeh (Muhyi) berdilar, xolos. G'azallarda Asrorqul nomli shaxs mazammot etilgan bo'lsa-da, nazarimizda, har ikkala shoirning ham asosiy maqsadi bu emas. Hajviyotning asosiy maqsadi, o'zgalarni Asrorqul holatiga tushib qolishdan ogohlantirish, jamiyatni bu kabi tuban, yaramas fe'l atvorlardan tozalashdir.

Muhyi, Qoriy, Muqimiylar ijodida tarixiy voqealarning aks etishi ularning faqatgina shoir yoki navisanda sifatida emas, balki o'z davrining tarixiy hodisalarini mushohada qilgan ma'rifatparvar ziyolilar sifatida ham namoyon bo'lishlaridan dalolat beradi. Ularning asarlari XIX–XX asr boshlaridagi Qo'qon xonligi hamda Turkiston o'lkasidagi tarixiy voqealarni o'rganish uchun bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

1. Milliy uyg'onish davri Qo'qon adabiy muhiti o'zbek adabiyotidagi muhim bosqich sifatida o'ziga xos ijodiy an'analari, ma'rifatparvarlik g'oyalari va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi doirasida mumtoz she'riyat an'alariga individual ijodiy tafakkur asosida yondashuv, poetik mazmunning ijtimoiylashuvi va badiiy obraz va timsollar yangilanishi Muhyi va uning zamondoshlari asarlari misolida isbotlangan bo'lib, bu muhit milliy o'zlikni anglash, ma'naviy-axloqiy qarashlarning rivojlanishi va Sharq mumtoz adabiyoti an'alarini milliy uyg'onish ruhida boyitish orqali o'zbek adabiyotidagi yangi bosqichlar uchun mustahkam poydevor yaratdi.

2. Muhyi, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Rojiiy Marg'iloniy va boshqa shoirlarning ijodi mumtoz janrlar va yangi ijtimoiy-siyosiy mazmunning sintezi sifatida namoyon bo'lib, she'riyatni nafaqat estetik vosita, balki xalqni uyg'otish va ijtimoiy adolatni targ'ib qilish quroliga aylantirdi. Adabiy muhitning o'ziga xosligi uning badiiy uslubi, mavzu doirasi va ijodkorlarning ma'rifiy faoliyatida ko'zga tashlanadi, bu esa ilmiy yangilikda belgilanganidek, Qo'qon adabiy muhitining milliy estetik tafakkur takomilida tutgan o'rni faqat Muqimiy va Furqat ijodiy salohiyati bilan cheklanmaganligini, balki Muhyi va uning davrasi vakillari ijodining ham katta ta'sirini ko'rsatadi. Shoirlar an'anaviy aruz vaznlari, tashbeh, istiora, mubolag'a kabi badiiy san'atlarni zamon talablariga mos ravishda qo'llab, oshiqona va irfoniy obrazlarni yangi ijtimoiy-falsafiy mazmun bilan boyitdilar. Masalan, Muhyining g'azallari mantiqiy izchillik va kompozitsion o'ziga xoslik bilan, Furqatning muxammaslari mustamlakachilik siyosatiga qarshi tanqid sifatida, Zavqiyning ramzlari esa ijtimoiy adolatsizlikni fosh qilishda muhim rol o'ynadi. Qo'qon adabiy muhiti shoirlari o'zbek she'riyatida an'ana va yangilikni uyg'unlashtirib, estetik zavq bilan ijtimoiy mas'uliyatni birlashtirdi.

²⁵ Muhyiddin Muhyi. Devoni Muhyi. – Toshkent: Hoji Abdurrauf nashri, 1911/m. (O'zFASHI ning toshbosma asarlar fondida №3220 inventar raqami bilan saqlanmoqda), 360 sahifa. O'zbekcha-tojikcha, o'zbekcha qismi 231-sahifadan boshlanadi. – B. 308.

